

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURBANOV BAXTIYAR JURABAYEVICH**

**O‘ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOTIDA TEMIR YO‘L  
TRANSPORTI: MUAMMO VA YECHIMLAR (1917-1945-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Kurbanov Baxtiyar Jurabayevich**

О‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida temir yo‘l transporti: muammo va yechimlar (1917-1945-yillar).....3

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**

Железнодорожный транспорт в социально-экономической жизни Узбекистана: проблемы и решения (1917-1945 годы).....27

**Kurbanov Bakhtiyar Jurabaevich**

Railway Transport in the Socio-Economic Life of Uzbekistan: Problems and Solutions (1917-1945).....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURBANOV BAXTIYAR JURABAYEVICH**

**O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDA TEMIR YO‘L  
TRANSPORTI: MUAMMO VA YECHIMLAR (1917-1945-YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.Phd/Tar470 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume))da Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulov Abdulla Nuritdinovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Muzrobjon G'ulomovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Tog'ayeva Anora Zayniddinovna**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi**  
**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01.-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 30 05 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:170100, Andijon shahri Universitet ko'chasi 129-uy. Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz) Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2024 11 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri Universitet ko'chasi 129-uy. ARM binosi). Tel.: (0374) 225-84-33; Faks: (0374) 225-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "15" 05 dagi 40 - raqamli reyestr bayonnomasi)



*R.T.*  
**R.T.Shamsutdinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash raisi, t.f.d., professor

*M.O.*  
**M.O.Alihojiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash Ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

*U.S.*  
**U.S.Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan globallashtirish va integratsiya jarayonlarida transportning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy infrastrukturasi rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan temir yo'l transporti bu o'rinda muhim ahamiyatga ega bo'lib, turli davlat va mintaqalarni bir-biriga bog'lashda hamda yagona iqtisodiy makonga aylanishida hal qiluvchi rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasining dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emasligi tufayli uning tashqi iqtisodiy aloqalari asosan Markaziy va Janubiy Osiyo xalqaro transport infratuzilmasining bir qismi sifatida mamlakat transport tizimi rivojlanishi bilan bog'liq sanaladi. Bu o'rinda O'zbekistonning geografik joylashuvi tranzit hamda eksport va import tovarlarini tashishda temir yo'llarning transportdagi asosiy rolini belgilab beradi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmog'i hisoblangan temir yo'l transportining ahamiyati ortib borishi bilan birga, bugungi kunda uning tarixiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim masala hisoblanadi. Jamiyat moddiy farovonligini asosi bo'lgan tovar ayirboshlash va yuk tashish masofasining o'sishi iqtisodiyotni rivojlanishida hamda mintaqalararo ixtisoslashuvni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Aynan shu maqsadda jahonning yetakchi ilmiy markazlarida temir yo'l sohasi tarixi va taraqqiyoti muammolari o'rganilmoqda. Bu temir yo'l transportidagi islohotlarning maqsadlari va sohadagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar masalasida bo'lib, bir qator muhim vazifalarni hal etish zaruriyati vujudga keldi. Jumladan, "Taraqqiyot strategiyasi"ning milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida shaharlararo va shahar atrofi temir yo'l qatnovlari jozibadorligini oshirish, transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish hamda transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish kabi vazifalar ko'rsatib o'tilgan<sup>1</sup>.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmog'i sanalgan temir yo'l transporti sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratila boshladi. Yangi temir yo'l liniyalari qurilib, moddiy-texnik bazani mustahkamlashga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonning eng muhim tarkibiy qismi temir yo'l transportining faoliyati nafaqat uning ishlab chiqarish infratuzilmasi, balki iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalarida ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Bu o'rinda juda ko'p muammolar mavjud bo'lib, temir yo'l tarmoqlarining qayta tiklanishi va qurilishining shart-sharoitlari, ish haqi, uy-joy ta'minoti, sog'liqni saqlash, milliy kadrlar tayyorlash masalalaridagi tarixiy tajriba alohida o'rganishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksionerlik kompaniyasini tuzish to'g'risida" 1994-yil 7-noyabrdagi PF-

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами. 2022 й. 4 (1024) - сон. – Б.11 – 22.

982-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi 766-I-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-avgustdagi 366-son “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi 329-son “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va sohaga oid boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Temir yo‘l transporti tarixi, uning milliy iqtisodiyot va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishidagi roli masalasi tadqiqotchilarning doimiy e‘tibori bilan bog‘liq mavzulardan hisoblanadi. Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni davriy va uslubiy yondashuv jihatidan uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) Sovet davri adabiyotlari; 2) Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 3) Xorijiy adabiyotlar.

**Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlarga sovet hokimiyati yillarida olib borilgan tadqiqotlar kiritilgan bo‘lib,** bu davrda mavzuga oid bir qator maqola, risola va adabiyotlar nashr etilgan. XX asrning 20-30-yillarida Turkiston matbuotida temir yo‘llarning holati, milliy kadrlarni tayyorlash va bu bilan bog‘liq muammolar, o‘lka musulmonlaridan temir yo‘lda ishlashga jalb etish, yangi temir yo‘llarni ochilishiga oid maqola va ma‘lumotlar berib borilgan<sup>2</sup>. Dastlabki nashrlar

---

<sup>2</sup>Turkiston temir йўлларининг холи // Қизил байроқ. – 1921. – 17 ноябрь; Ерли халқ орасида темир йўл хизматчилари етиштириш // Қизил байроқ. – 1921. – 16 декабрь; Сирожий. Муслмон темир йўл ишчиларини ўқитиш керак // Туркiston. – 1923. – 13 февраль; Uning o‘zi. Муслмон темир йўл ишчилари орасида сиёсий тарбия // Туркiston. – 1923. – 20 март; Uning o‘zi. Ўрта Осиё темир йўлидаги ерлик халқ ишчилари орасида // Туркiston. – 1923 – 4 июль.; Сулаймон Ф. Етисув – Сибирь темир йўли ва унинг Туркiston учун аҳамияти // Туркiston. – 1923. – 10 март; Қосимов Сами. Бизга муслмон ишчилари керак: [Ўрта Осиё темир йўлига ерлик аҳолини жалб қилиш масаласи] // Туркiston – 1923. – 12 сентябрь; Темир йўл ташкилотларида муслмонлар йўқ // Туркiston. – 1923. – 23 сентябрь; Муслмон темир йўл техникуми // Туркiston. – 1923. – 16 ноябрь; Темир йўл ишчилари билан муносабат // Туркiston. – 1923. – 5 дек.; Темир йўл ишчилари турмушидан // Туркiston. – 1924. – 12 июнь; Ал-Арабий Абу Саид. Темир йўллар муслмонлаштирилсин: [Темир йўллардаги ёзувларнинг рус тилида эканлиги ҳақида] // Туркiston. – 1924. – 29 июль; Башир З. Авлиёта – Пишпак темир йўлининг очилиши // Туркiston. – 1924. – 10 август; Андижон – Наманган темир йўлининг очилиши // Туркiston. – 1924. – 7 сентябрь; Темир йўлчи. Темир йўлчиликка ҳозирлигимиз борми? [Муслмон темир йўл техникуми ҳақида] // Туркiston. – 1924. – 15 сентябрь; Йўловчи. Наманган – Андижон темир йўли тўғрисида // Қизил байроқ. – 1925. – 10 февраль; Ўзбекистон темир йўллари тўғрисида // Қизил Ўзбекистон. – 1925. – 7 сентябрь; Ҳабиб И. Хоразмда йўл ишлари // Қизил Ўзбекистон. – 1925. – 13 октябрь; Чуст темир йўлини солиш масаласи // Қизил Ўзбекистон. – 1925. – 16 декабрь; Тоҳирий Фарид. Йўл ислохоти ҳам керак // Қизил Ўзбекистон. – 1925. – 22 декабрь; Ўрта Осиёда транспортнинг аҳамияти: (Темир йўл вакилларининг қурултойи муносабати билан) // Қизил Ўзбекистон. – 1926. – 7 апрель; Ўрта Осиё темир йўлининг ишларини қувватлаш тўғрисида // Қизил Ўзбекистон. – 1926. – 23 апрель; Ўрта Осиёда йўллар ва алоқа ишлари // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 6 июнь.; Қамчинбек А. Бўлғуси Туркiston – Сибирия йўли // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 21 июль.; Термиз – Душанба темир йўли // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 4 август; Ўрта Осиёда йўл қурилиши // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 15 август; Тошкент – Пискент – Хўжанд темир йўли // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 16 ноябрь; Нақлиёт ишларимиз ривожланади: (Йўллар комиссарлигининг Ўрта Осиё вакили ва Ўрта Осиё темир йўл идорасининг раиси

XX asrning 30-40-yillarida, asosan umumittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan va targ'ibot mazmunida bo'lib, tadqiqotlarda SSSR temir yo'llarining iqtisodiy va ekspluatatsion ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Besh yilliklar va urush yillarida temir yo'l transportining erishgan yutuqlari yoritilgan kam sonli nashrlar mavjud bo'lib, mavzuga asosan ijobiy yondashilganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiyotlarning aksariyati kommunistik mafkura manfaatlariga moslashtirilgan bo'lib, unga ko'ra, 1917-yilga qadar o'lkada temir yo'l transportining moddiy-texnika bazasi juda nochor bo'lganligi va sovet hokimiyatini o'rnatilishi ushbu sohani rivojlantirish tarixida yangi davrni boshlab berganligi ta'kidlanadi<sup>3</sup>. XX asrning 50-60-yillaridagi tadqiqotlarda temir yo'llar qurilishining ahamiyati hamda targ'ibot-tashviqot jarayonlarida ishchilar sinfining shakllanishi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Turkiston-Sibir temir yo'li qurilishining tub maqsadlari niqoblanib, buni "sotsialistik qurilishning yorqin namunasi" sifatida e'tirof etildi. Ikkinchi jahon urushi (1939–1945)ning boshlanishi bilan O'zbekiston temir yo'l transporti zimmasiga Markaz tomonidan muhim harbiy va logistika vazifalari yuklatilgani, temiryo'lchilarning front va front ortidagi harakatlari tadqiqotga oid adabiyotlarda alohida tilga olinadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida evakuatsiya va temir yo'l transporti masalasi qator tarixchilar tomonidan atroflicha tadqiq etildi<sup>4</sup>. Shuningdek, XX asrning 70-80-yillaridagi xalq xo'jaligining iqtisodiy masalalari bilan bog'liq bir qator tadqiqotlarda ham temir yo'l transporti sohasiga alohida

---

ўртоқ Г.Е.Мост билан мусохабадан) // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 5 декабрь; Сайёх. Туркистон – Сибирь темир йўлининг жанубида // Қизил Ўзбекистон. – 1927. – 13 декабрь; Мўмин Хўжа. Термиз – Душанба темир йўли // Қизил Ўзбекистон. – 1928. – 17 июнь; Турксибга қўшимча йўллар керак: Турксибнинг баҳоси – 182 миллион сўм: [Туркистон – Сибирь темир йўли ҳақида] // Қизил Ўзбекистон. – 1929. – 8 март.; Термиз – Душанба темир йўли очилди // Қизил Ўзбекистон. – 1929. – 13 сентябрь; Зеленский И.А. Турксиб – бизнинг фахримиздир // Қизил Ўзбекистон. – 1930. – 1 май.; Турксибнинг муваффақият билан ишлашини таъминлайлик: Янги йўлнинг иши ижтимоий янги йўлга қўйилсин // Қизил Ўзбекистон. – 1930. – 1 май.; Алиев Комил. Сўз ўртоқ Шатовга...: [Турксиб тантанаси кунини Шатовнинг темир йўл тўғрисида ҳукумат вакилларига берган рапорти ҳақида] // Қизил Ўзбекистон. – 1930. – 15 май.; Хушназаров. Тошкент – Пискент темир йўли кўкларда ҳаракатга киради // Қизил Ўзбекистон. – 1930. – 14 декабрь;

<sup>3</sup>Якоби А. Железные дороги СССР в цифрах. Статический сборник. – Москва: Союзоргучет, 1935. – 158 с.; Вольфсон Л., Корнеев А., Шильников Н. Развитие железных дорог СССР. – Москва: Трансжелдориздат, 1939. – 180 с.; Хачатуров Т. Железнодорожный транспорт в Великой Отечественной войны. – Москва: Госполитиздат, 1943. – 47 с.; Унинг о'зи. Великая железнодорожная держава. – Москва: Трансжелдориздат, 1944. – 123 с.; Ковалев И.В. Советский железнодорожный транспорт. 1917-1947. – Москва: Трансжелдориздат, 1947. – 112 с.

<sup>4</sup>Грот А. Солончаки в дорожном строительстве УзССР: Автореферат дисс... канд. техн. наук. – Ташкент, 1951. – 21 с.; Напорко А. Г. Очерки развития железнодорожного транспорта СССР. – Москва: Трансжелдориздат, 1954. – 284 с.; Иноятов Х. Ўзбекистонда Октябрь революцияси. – Тошкент: Уздавнашр, 1957. – 80 б.; Уродов С. А. Эвакуация и населения Ленинграда 1941-1942 годах. // Вестник Ленинградского университета. – Ленинград, 1958. – №8.; Казакова А., Салимов А. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны Советского Союза (1941-1945 гг.) // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1961. – №6; Назаров М.Х. Туркистон интервенция ва граждандар уруши даврида (1918-1920 йиллар). – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1961. – 32 б.; Байкенов М. Железнодорожники Казахстана в борьбе за победу советской власти (1917-1920): Дисс...канд. ист. наук. – Алма-ата, 1963. – 315 с.; Куманев Г. А. Советские железнодорожники в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. – Москва, 1963. – 207 с.; Ахмаджанова З. К истории строительство железных дорог в Средней Азии (1880-1917 г.) – Ташкент: Наука, 1965. – 216 с.; Белоносов И.И. Эвакуация населения из прифронтовой полосы в 1941–1942 гг. / Эшелоны идут на Восток. Из истории перебазирования производственных сил СССР в 1941–1942 гг. Сборник статей и воспоминаний. – Москва: Наука, 1966. – 263 с.; Иноятов Х.Ш. и др. Победа советской власти в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент: Наука, 1967. – 771 с.; Кунавин Г. Формирование железнодорожного пролетариата в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1967. – 192 с.

e'tibor qaratildi<sup>5</sup>. S. Xo'jayev, G.Z. Zaxritdinovlar<sup>6</sup> O'zbekistonda yuk tashish va jamoat transportining rivojlanishi hamda yo'lovchi tashishning o'sib borishini atroflicha o'rgandilar. Mazkur adabiyotlarda ko'plab ilmiy-tarixiy ma'lumotlar keltiriladi, biroq aksariyat masalalarga hukmron mafkura nuqtayi nazaridan xolis va tanqidiy yondashilmaganligini ko'rish mumkin. Xususan, olib borilgan tadqiqotlarda ushbu mavzu bir tomonlama, mavjud tuzum talablari va mafkurasi asosida yoritilgan. O'rta Osiyo respublikalari temir yo'l transporti faoliyati va temiryo'lchilarining og'ir mehnati hamda kadrlar masalasi yuqoridagi tadqiqotlarda mazmunan to'laqonli yoritilmagan.

Tadqiqotning **ikkinchi guruhiga** oid adabiyotlarni mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng tarixni xolisona yozishga kirishildi. Natijada sovet davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy jarayonlarni yoritishga bag'ishlangan asarlar chop etildi. Ushbu tadqiqotlarda tanlangan mavzu bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirilganini alohida qayd etish maqsadga muvofiq<sup>7</sup>.

Mustaqillik yillarida sovet hokimiyati hukmronligining muayyan bosqichlarida temir yo'llar faoliyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyati kabi masalalar ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi<sup>8</sup>. Masalan, A.Z. Tog'ayeva tadqiqotida Toshkent-Orenburg temir yo'lining qurilish tarixi va 1917-yilga qadar bo'lgan faoliyatini hamda uning Turkiston iqtisodiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini o'rganilgan<sup>9</sup>. O.A. Radjabovning tadqiqoti esa xronologik jihatdan 1925-1945-yillarni o'z ichiga olib, unda yangi temir yo'llarning barpo etilishi va yo'lovchi, yuk qatnov dinamikasi hamda temir yo'l tarmoqlari infratuzilmasi tahlil qilingan. Shuningdek, temir yo'l xodimlarining ijtimoiy himoyasi muammolariga

<sup>5</sup>Самарқанд тарихи. Улуғ Октябрь революциясидан то шу кунгача. 2-том. – Тошкент, 1970. – 463 б.; Улуғ Октябрь социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар). III том. – Тошкент: Фан, 1971. – 200 б.; Бозоров Ю. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон оммавий-мудофаа ташкилотлари (1941-1945 йиллар). – Тошкент: Фан, 1972. – 30 б.; Каримов Р. Ўзбекистон социал-иктисодий тараққиёти тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981. – 25 б.; Ковалёв И.В. Транспорт в Великой Отечественной войне (1941-1945 гг.). – Москва: Наука, 1981. – 480 с.; Хушмурадов А. Железнодорожники Ташкентской магистрали в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): Дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. – 210 с.; Чадаев Я. Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). – Москва: Мысль, 1985. – 494 с.; Обломуродов Н. Узбекистан освобожденным районам страны в годы войны. – Ташкент: Узбекистан, 1986. – 80 с.; Дмитриев В.А., Мушруб А.Г. В.И.Ленин и железнодорожный транспорт // Железнодорожный транспорт. – Москва, 1990. – №4.; Джумабоев С. Подготовка инженерных кадров // Железнодорожный транспорт. – Москва, 1991. – №1.

<sup>6</sup>Хўжаев С. Ўзбекистонда транспортнинг ривожланиши ва аҳамияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – 96 б.; Захритдинов Г.З. Развитие пассажирского транспорта Узбекистана: Дисс. ... канд. эконом. наук. – Ташкент, 1972. – 188 с.; Хўжаев С. Ўзбекистонда транспортни комплекс ривожлантириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975. – 256 б.

<sup>7</sup>Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: Sharq, 2000. – 688 б.; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Я.Раджапова. – Тошкент: Sharq, 2000. – 674 б.; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликлари талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865 – 1990 й.). Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир: Д.Алимова. – Тошкент: Sharq, 2000. – 432 б.; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Масъул муҳаррирлар: Абдуллаев Р., Рахимов М., Ражабов Қ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 560 б.; Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд (1900-1939). – Тошкент: Фан, 2024. – 751 б.; Унинг о'зи. Ўзбекистон XX асрда. Иккинчи жилд (1939-2000). – Тошкент: Фан, 2024. – 719 б.

<sup>8</sup>Тогаева А. З. Железная дорога Ташкент-Оренбург и её место в социально-экономической жизни Туркестана. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2010. – 30 с.; Раджабов О.А. Ўзбекистонда темир йўллар тарихи (1925-1945 йиллар). Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022. – 172 б.

<sup>9</sup>Махаммадалиев Р., Ниязов А. Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспортининг ривожланиш тарихи ва истикболи //Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | Issue 2 | 2021.<https://cyberleninka.ru/article/n>

e'tibor qaratilgan. Lekin bu tadqiqotda Turkistondagi temir yo'l transporti, boshqaruv masalalari tadqiqot xronologik doirasiga kirmagan va bu masalalar o'z aksini topmagan.

Tadqiqotning **uchinchi guruhiga** oid ilmiy izlanishlarni xorijlik mutaxassislar tomonidan nashr etilgan qator adabiyotlar va maqolalar tashkil etib, ularda temir yo'l transportining sovet davridagi faoliyati umumittifoq va respublikalar misolida o'rganilgan. Ye.A. Risning monografiyasida<sup>10</sup> sovet tarixi va adabiyotida lokomotivdan kuchliroq modernizatsiya, taraqqiyot va sivilizatsiya timsoli bo'lmagan. Stalin uchun SSSRni birlashtirgan va uni davlat sifatida yashashga yaroqli qilgan temir yo'l tarmog'i bo'lganligi ta'kidlanadi. Amerikalik tarixchi Metyu Paynning tadqiqotida esa ulkan loyiha Turkiston – Sibir temir yo'lining sinfiy urush, siyosiy qatag'onlar va quruvchilarning og'ir kundalik hayotini chuqur o'rganadi<sup>11</sup>. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida olib borilgan keng ko'lamlı tadqiqotlarda ham transport tarixi atroflicha yoritib berilgan<sup>12</sup>.

Mavzuni o'rganish darajasining tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlarda sovet davrida temir yo'llar faoliyatining u yoki bu jihatlarini ma'lum bir davr chegarasida o'rganilgan. Lekin 1917-1945-yillarda temir yo'l transportining O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va roli masalalari kompleks ravishda tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi respublikada olib borilayotgan O'zbekistonning yangi tarixini yaratish bilan bog'liq konseptual vazifalardan kelib chiqib, Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida temir yo'l transportining tutgan o'rni va rolini kompleks tahlil qilish orqali temir yo'llarning 1917-1945-yillarda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini manbalarga asoslangan holda yoritib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

1917-yil voqealari fonida Turkiston temir yo'llarining ahvoli, Oktyabr (1917) davlat to'ntarishi hamda temiryo'lchilarning unga bo'lgan munosabatini tahlil qilish;

sovet hokimiyati o'rnatilishi sharoitida temir yo'l transporti sohasidagi o'zgarishlar, xususiyatlari, amalga oshirish yo'nalishi va muammolarini aniqlash;

sovet hukumati davrida temir yo'l transporti boshqaruv tizimini shakllantirishning asosiy jarayonlarini ochib berish;

---

<sup>10</sup>Rees E. A. Stalinism and Soviet Rail Transport. – London: Palgrave Macmillan London, 1995. –307 p.

<sup>11</sup>Matthew J. Payne Stalin's Railroad: Turksib and the Building of Socialism (Russian and East European Studies) Paperback – December 15, 2001. – 400 p.

<sup>12</sup>История железнодорожного транспорта России и Советского союза (1917-1945 гг.). Т.2. – Санкт-Петербург – Москва, 1997. – 416 с.; Раткевич В.М. Служба военных сообщений на железнодорожном транспорте в годы Великой Отечественной войны: Автореф. дис... канд. ист. наук. – Москва, 2005. – 28 с.; Куманев Г. А. Война и эвакуация в СССР. 1941-1942 годы. – Новая и новейшая история, 2006; Глушенко Е. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. – Москва: Центрполиграф, 2010. – 575 с.; Мозохин О. Эвакуация населения, объектов промышленности и культурных ценностей из прифронтовой зоны в годы Великой отечественной войны // Журнал Российских и восточноевропейских исторических исследований. – Москва, 2018. – №1.

temir yo‘l xo‘jaligini tiklash ishlari va uning o‘lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini tadqiq etish;

temir yo‘l sohasini kadrlar bilan ta‘minlash hamda bu jarayonga mahalliy millat vakillarini jalb qilish, ularning ta‘minoti bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o‘rni va roliga baho berish;

temir yo‘l tarmoqlarini loyihalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari va ahamiyatini tahlil qilish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida temir yo‘l transporti ishining front va xalq xo‘jaligi manfaatlari uchun qayta qurilishi va faoliyatini tadqiq etish;

temiryo‘lchilarning transport ishini tashkil etishdagi va front hamda front ortidagi faoliyatlari bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil etish.

**Tadqiqotning obyektini** 1917-1945-yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida temir yo‘l transportining tutgan o‘rni va roli tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekiston temir yo‘llari va temir yo‘l transporti tizimining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni, faoliyatidagi o‘zgarishlar, boshqaruv, kadrlar va texnik ta‘minot, yuk va yo‘lovchi tashish sohasidagi o‘rni, sovet davlati qurilishi sharoitida va urush yillarida temir yo‘llardan foydalanish holati tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarixiylik va xolislik tamoyillari hamda tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, tizimli tahlil kabi usullar qo‘llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Temir yo‘llarning mintaqa iqtisodiy hayotiga ta‘siri, O‘rta Osiyo temir yo‘lining Bosh ustaxonalari Turkistondagi eng yirik sanoat korxonasi hisoblanishi va temiryo‘lchilarning 1917-yil voqealaridagi faol ishtiroki, Oktyabr (1917) davlat to‘ntarishidan so‘ng temir yo‘l transportiga katta zarar yetkazilgani, O‘rta Osiyo temir yo‘llarida harbiy holatning joriy etilishi (1918), temir yo‘l qo‘shinlarini shakllantirish zaruriyati, shanbaliklar va “transport haftaliklari”, hatto “yuk tushirish haftaligi”ni tashkil etilganligi (1920), mehnatning o‘ta og‘ir shart-sharoitlari natijasida temir yo‘ldan ishchilarning ommaviy ravishda ketishi kuzatilgani aniqlandi;

Farg‘ona frontida poyezdlar qatnovidagi vujudga kelgan tartibsizliklar natijasida nazorat qilinmagan harakatlar tufayli qarama-qarshi yo‘nalishlarda to‘qnashish holatlari bo‘lganligi (1919), bolsheviklar sovet hokimiyatini mustahkamlash yo‘lida targ‘ibotchi poyezdlardan foydalanganligi (“Qizil Turkiston”, “Qizil Sharq”), epidemiyalarning temir yo‘llarda harakatlanishga salbiy ta‘sir etganligi, aloqa yo‘llarini boshqarish tuzilmasining bir necha marotaba o‘zgarganligi asoslandi;

O‘zbekiston bo‘yicha temir yo‘l transportida xizmat ko‘rsatish imkoniyati Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida nisbatan qoniqarli ekanligi, iqtisodiy xizmat xodimlari tiklanadigan temir yo‘l tarmoqlari joylashgan rayonlarni iqtisodiy imkoniyatlarini o‘rganganligi, yo‘llarni qurish va ta‘mirlashga Markazdan sifatsiz materiallar yuborilganligi, O‘rta Osiyo respublikalari temir yo‘llari tizimida ishchi va xizmatchilarning 7 foizga yaqinagina milliy kadrlar bo‘lganligi, mahalliy aholini yo‘llarga jalb qilishdagi qiyinchiliklar hamda bir xil malakaga ega mahalliy millat ishchilariga shu toifadagi yevropalik ishchilardan kam haq berilganligi dalillangan;

urush o'choqlaridan to O'rta Osiyogacha eshelonlarni kelish jarayoni bevosita asosiy transport vositasi - temir yo'llar orqali amalga oshirilganligi, evakuatsiya qilingan korxonalarni ekspluatatsiyasiga rahbarlik qilish uchun hukumatning maxsus komissiyasi tuzilganligi, Toshkent – Angren temir yo'l qurilishi (1941) "xalq qurilishlari" usuli orqali bajarilgani, temir yo'l transporti ishchisining xizmat bo'yicha jinoiy javobgarligi Qizil armiya harbiy xizmatchilariga tenglashtirilgani (1943), sohani kadrlar bilan ta'minlashning ikkinchi yo'li bu ayollarni transportdagi kasblarga o'qitish hisobiga amalga oshirilgani tahlil qilindi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

1917-1945 yillarda temir yo'llarning O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni va roli bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar xulosalaridan kelib chiqib taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqotda O'zbekistonda temir yo'l transportining faoliyati tarixiga oid ko'plab arxiv hujjatlari va birlamchi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi;

O'zbekistonda temir yo'l transportining faoliyati tarixiy tajribasi respublikada temir yo'l xo'jaligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va kadrlar bilan ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga, shuningdek, O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning istiqbollari asosan transport kommunikatsiyalari va birinchi navbatda temir yo'llarning rivojlanish darajasi bilan bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, yo'llar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda bugungi kunda tarix fanida qo'llanilayotgan nazariy yondashuv va tamoyillar hamda uslublarning qo'llanilganligi, arxiv manbalariga boyligi, shu jumladan, O'zbekiston Milliy arxivi, Buxoro, Namangan, Samarqand, Farg'ona viloyatlari davlat arxivlarida saqlanayotgan 30 dan ortiq fond materiallariga asoslanganligi, xulosalarning mavjudligi, dissertatsiya ma'lumotlaridan amaliyotda foydalanilayotganligi hamda buni tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida yuzaga kelgan ma'lumotlar, xulosalar hamda nazariy fikrlar O'zbekistonda temir yo'llar tarixiga oid tarixiy tadqiqot usullari hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixiga doir ma'lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekistonda temir yo'llar tarixini o'rganishga yangicha yondashuvni, xususan, temir yo'llarning tiklanishi, yangi tarmoqlarning qurilishi sharoitlari, boshqaruv va kadrlar bilan ta'minlash faoliyatini keng miqyosda tarixiy manbalar orqali kompleks tadqiq etishni rivojlantirishga, birlamchi manbalarni tahlil qilish orqali O'zbekistonning 1917-1945-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari 1917-1945-yillar davomida O'zbekiston temir yo'llarining qayta tiklanishi, yangi temir yo'l liniyalarining qurilishi shart-sharoitlari, boshqaruv sohasidagi muammolar, kadrlar masalasi, temir yo'l transporti ishining front va xalq xo'jaligi manfaatlari uchun qayta qurilishi, temiryo'lchilarning II jahon urushida qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini o'rganish jarayonining mohiyati va xususiyatlari to'g'risida bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga

hissa qo'shadi. Tadqiqot materiallarini chuqur o'rganish, O'zbekistonda mahalliy temir yo'llar va transport qurilishi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bo'yicha umumlashtiruvchi asarlar va darsliklar yaratish uchun foydalanish mumkin.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

1917-1945-yillarda O'zbekistonda temir yo'l tarixiga doir olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

Temir yo'llarning mintaqqa iqtisodiy hayotiga ta'siri, O'rta Osiyo temir yo'lining Bosh ustaxonalari Turkistondagi eng yirik sanoat korxonasi hisoblanishi va temiryo'lchilarning 1917-yil voqealaridagi faol ishtiroki, Oktyabr (1917) davlat to'ntarishidan so'ng temir yo'l transportiga katta zarar yetkazilgani, O'rta Osiyo temir yo'llarida harbiy holatning joriy etilishi (1918), temir yo'l qo'shinlarini shakllantirish zaruriyati, shanbaliklar va "transport haftaliklari", hatto "yuk tushirish haftaligi"ni tashkil etilganligi (1920), mehnatning o'ta og'ir shart-sharoitlari natijasida temir yo'ldan ishchilarning ommaviy ravishda ketishiga doir hujjatlar va ular asosida olingan ilmiy natijalar Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining "Tarix" bo'limi manbalarini boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 22-noyabrdagi 04-05/4337 - sonli ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining Namangan viloyati tarixi ekspozitsiyasi bo'yicha mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilarni yangi ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qilgan;

Farg'ona frontida poyezdlar qatnovidagi vujudga kelgan tartibsizliklar natijasida nazorat qilinmagan harakatlar tufayli qarama-qarshi yo'nalishlarda to'qnashish holatlari bo'lganligi (1919), bolsheviklar sovet hokimiyatini mustahkamlash yo'lida targ'ibotchi poyezdlardan foydalangani ("Qizil Turkiston", "Qizil Sharq"), epidemiyalarning temir yo'llarda harakatlanishga salbiy ta'sir etganligi, aloqa yo'llarini boshqarish tuzilmasining bir necha marotaba o'zgarganligiga oid ma'lumotlardan Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi va uning filiallarida ekspozitsion rejalarini tuzish, ko'rgazmalar tashkil etish hamda ekskursiya matnlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 22-noyabrdagi 04-05/4337 - sonli ma'lumotnomasi). Taqdim qilingan materiallar muzey zalini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga va 1917-1945 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida temir yo'l transportining tutgan o'рни va rolini yoritishga xizmat qilgan;

O'zbekiston bo'yicha temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish imkoniyati Farg'ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida nisbatan qoniqarli ekanligi, iqtisodiy xizmat xodimlari tiklanadigan temir yo'l tarmoqlari joylashgan rayonlarni iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganganligi, yo'llarni qurish va ta'mirlashga Markazdan sifatsiz materiallar yuborilganligi, O'rta Osiyo respublikalari temir yo'llari tizimida ishchi va xizmatchilarning 7 foizga yaqiniga milliy kadrlar bo'lganligi, mahalliy aholini yo'llarga jalb qilishdagi qiyinchiliklar hamda bir xil malakaga ega mahalliy millat ishchilariga shu toifadagi yevropalik ishchilardan kam haq berilganligiga doir hujjatlar va ular asosida olingan ilmiy natijalardan

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali ayrim ko‘rsatuvlar ssenariysini ilmiy dalillar bilan boyitishda, jumladan “Taqdimot” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 31-iyuldagi 06-31-897-sonli ma’lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar ko‘p sonli teletomoshabinlarda 1917-1945 yillarda O‘zbekistonning temir yo‘l transporti tarixi bo‘yicha yangi ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lishga xizmat qilgan.

Urush o‘choqlaridan to O‘rta Osiyogacha eshelonlarni kelish jarayoni bevosita asosiy transport vositasi - temir yo‘llar orqali amalga oshirilganligi, evakuatsiya qilingan korxonalarni ekspluatatsiyasiga rahbarlik qilish uchun hukumatning maxsus komissiyasi tuzilganligi, Toshkent – Angren temir yo‘l qurilishi (1941) “xalq qurilishlari” usuli orqali bajarilgani, temir yo‘l transporti ishchisining xizmat bo‘yicha jinoiy javobgarligi Qizil armiya harbiy xizmatchilariga tenglashtirilgani (1943), sohani kadrlar bilan ta’minlashning ikkinchi yo‘li bu ayollarni transportdagi kasblarga o‘qitish hisobiga amalga oshirilgani tahlili natijalaridan O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvini ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 31-iyuldagi 06-31-897-sonli ma’lumotnomasi). Qo‘llanilgan natijalar O‘zbekistonning temir yo‘l transporti faoliyati to‘g‘risida yangi tarixiy ma’lumotlarni teletomoshabinlarga qiziqarli va mazmunli qilib yetkazishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari jami 13 ta nashr qilingan ishlarda, jumladan, OAK ro‘yxatidan o‘rin olgan Respublika va xorij jurnallarida chop etilgan 6 ta maqola, 7 ta ilmiy to‘plam hamda konferensiya materiallarida o‘z aksini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi bayon qilinib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Sovet davlati qurilishi shart-sharoitida temir yo‘l transporti**” deb nomlangan birinchi bobida 1917-yil voqealari va unda temiryo‘lchilarning ishtiroki, Sovet hokimiyati o‘rnatilishi sharoitida temir yo‘l

transporti ahvoli, temir yo‘l transporti boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar hamda ularning mohiyat va oqibatlari davriy ketma-ketlikda yoritib berilgan.

1917-yil boshida O‘rta Osiyo va Toshkent temir yo‘llarining asosiy ustaxonalari, turli stansiyalarning ustaxonalari va omborlari inqilobiy harakatning markazlari bo‘lib qolaverdi. Temir yo‘l ishchilari, xizmatchilar, askarlar oziq-ovqat holatini yaxshilash uchun qat’iy choralar ko‘rishni talab qilishdi<sup>13</sup>. Temir yo‘llar boshqaruvi Muvaqqat hukumat nazorati ostida bo‘lib qoldi, biroq u transport inqirozini yengillashtirish yoki temiryo‘lchilar ahvolini yaxshilash yuzasidan hech qanday chora ko‘rmadi. Natijada 1917-yil aprel oyidan transport tizimidagi inqiroz keskin kuchaydi<sup>14</sup>.

Bu davrga kelib shunday murakkab vaziyat vujudga keldiki, iqtisodiy-siyosiy beqarorlik bilan bir vaqtda temir yo‘l transporti faoliyatiga epidemiya ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, kasalliklarga qarshi profilaktika ishlarini tashkil etish hamda xavfni oldini olish maqsadida O‘rta Osiyo temir yo‘llari<sup>15</sup> tibbiy-sanitariya bo‘limi boshqarmasining 1917-yil 23-sentyabrdagi ko‘rsatmasiga asosan, vabodan shaxsiy himoya choralari bo‘yicha ko‘rsatmalarning 150 nusxasi konduktor va parovoz<sup>16</sup> brigadalarining stansiyalardagi dam olish binolarida joylashtirish uchun yuborildi<sup>17</sup>.

Bolsheviklar temir yo‘llarning strategik ahamiyatini inobatga olib, qurolli qo‘zg‘olon nuqtayi nazaridan birinchi navbatda telefon, telegraf, temir yo‘l stansiyalari, ko‘priklarni egallash va har qanday yo‘qotishlar evaziga bo‘lsa ham ularni o‘z qo‘llarida saqlab qolish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi<sup>18</sup>. 1917-yil 28-oktyabr kuni ertalab qurollangan ishchilar va askarlarning otryadlari Bosh temir yo‘l ustaxonalariga to‘plana boshladilar. Ustaxonalar qo‘zg‘olonning shtabiga aylandi<sup>19</sup>. Ushbu voqealarining ishtirokchisi, O‘rta Osiyo temir yo‘l ustaxonalari mahalliy komitetining sekretari A. Dubrovskiyning xotirlashicha, ustaxonalarda bolsheviklar keng tushuntirish ishlarini olib borishdi. Qo‘zg‘olonning birinchi kuniyoq, Toshkentga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida ishchilar bilan muzokara olib borish uchun liniyaga temiryo‘lchilar yuborildi<sup>20</sup>. Oktyabr davlat to‘ntarishidan keyin temir yo‘l va suv transporti ham og‘ir ahvolga tushib qoldi. Temir yo‘l transporti ishini yaxshilash maqsadida 1917-yilning dekabrda temir yo‘l

<sup>13</sup>Ахмеджанова З. К истории строительства железных дорог в Средней Азии. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 192.

<sup>14</sup>История железнодорожного транспорта России и Советского Союза. Том 2. 1917-1945 гг. – Санкт-Петербург – Москва, 1997. – С. 9.

<sup>15</sup>O‘rta Osiyo temir yo‘llar Boshqarmasi (Ashxobod) 1917-yil noyabrda tashkil etilgan. SSSR Xalq Komissarlari Soveti va bolsheviklarning Butunrossiya KP MIQning 1936-yil 13-maydagi qarori bilan tugatilgan va unga ko‘ra O‘rta Osiyo temir yo‘llari ikkiga: Toshkent va Ashxobod temir yo‘llariga ajratilgan. O‘zbekiston Milliy arxivi (keyingi o‘rinlarda O‘z MA), R-608-fond, 1-ro‘yxat, 1014- yig‘ma jild, 2- varaq.

<sup>16</sup>Parovoz – bug‘ yordamida harakatga keladigan avtonom lokomotiv. Темир йўл соҳасига оид сўз ва атамаларнинг русча-ўзбекча қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: ZAMIN NASHR, 2021. – Б.87.

<sup>17</sup>O‘z MA, R-233-fond, 1- ro‘yxat, 721- yig‘ma jild, 28- varaq.

<sup>18</sup>История железнодорожного транспорта России и Советского Союза. Том 2. 1917-1945 гг. – Санкт-Петербург – Москва, 1997. – С.11.

<sup>19</sup>Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Ташкент: Sharq, 2000. – С. 66.

<sup>20</sup> Туркистонда Улуғ Октябрь Социалистик революциясининг ғалабаси / Иштирокчиларнинг хотиралар тўплами. М. Йўлдошев таҳрири остида. – Тошкент, 1958. – Б. 270.

ishchilarining Butunrossiya favqulodda syezdi chaqirildi. Temir yo‘l aloqasini tartibga solishda temiryo‘lchilardan sovetlarga yordam berishi so‘raldi<sup>21</sup>.

Bolsheviklar temir yo‘l transporti ishini o‘z nazoratida ushlab turish maqsadida dastlab davlat va keyinchalik xususiy temir yo‘llarni milliylashtira boshladi. Jumladan, Turkiston XKSning 1918-yil 1-martdagi qaroriga ko‘ra, Yettisuv temir yo‘li milliylashtirildi<sup>22</sup>. Temir yo‘l transportini tiklash va uzluksiz ishlashini ta‘minlash uchun qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, mablag‘lar ajratildi. Jumladan, Turkiston Xalq komissarlari soveti 1918-yil 12-aprelda o‘tkazilgan o‘lka syezdida temir yo‘llarning favqulodda ehtiyojlari uchun Shahrixon kirish yo‘liga 85 000 rubl, Yettisuv temir yo‘llariga 2 900 000 rubl, Buxoro temir yo‘llariga 2 976 000 rubl, Toshkent temir yo‘llariga 10 000 000 rubl, O‘rta Osiyo temir yo‘llariga 12 846 000 rubl ajratish to‘g‘risida qaror qabul qildi<sup>23</sup>.

Chet el intervensiyasi va fuqarolar urushi (1918-1920-yillar) temir yo‘l transportini moddiy-texnik bazasini va yo‘lovchi tashishni yaxshilash hamda rivojlantirish imkonini bermadi. Bu davrda temir yo‘l transporti jiddiy zarar ko‘rdi. Asosan katta vayronagarchiliklar Kogon-Amudaryo, Qo‘qon-Namangan, Qarshi-Kitob va Namangan-Jalolobod temir yo‘l uchastkalarida sodir bo‘ldi<sup>24</sup>.

Tashish ishlarini bajarilishini ta‘minlash uchun favqulodda choralar ko‘rildi. 1918-yil yanvarida O‘rta Osiyo temir yo‘llarida harbiy holat joriy etildi<sup>25</sup>. Bu davrda Buxoroda ham temir yo‘llarda vayronagarchilik davom etdi. Bolsheviklar temir yo‘ldan bir necha marotaba Buxoro amirligiga nisbatan dushmanona xatti-harakatlarni amalga oshirishda foydalandi<sup>26</sup>.

Turkiston XKS ning 1918-yil 10-sentyabrdagi buyrug‘ida keltirilishicha, barcha tashkilot va muassasalarda sotib oluvchi agentlariga ega bo‘lgan chayqovchilar tomonidan temir yo‘l orqali qurollarni tashish holatlari ro‘yxatga olindi<sup>27</sup>. Yuqoridagi holatlarga qarshi keskin choralar ko‘rish belgilanib, militsiya, harbiy-jamoat qo‘riqlash va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qurol sotgan shaxsni fosh qilingan yerda otib tashlashgacha bo‘lgan huquqlar berildi.

Temir yo‘l transportidagi vayronagarchilik sharoitida uni tiklash ishlarini jadallashtirish va qo‘riqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, fuqarolar urushi (1918-1920) Qizil armiya qo‘mondonlari oldiga temir yo‘l qo‘shinlarini shakllantirish zaruriyatini qo‘ydi. 1918-yil oktyabrda hukumat qurolli kuchlari tarkibida temir yo‘l qo‘shinlarini tashkil etdi<sup>28</sup>.

Qaror topgan amaliyotga muvofiq, transport yo‘llarini qayta tiklashning muhim omili “inqilobiy g‘ayrat-shijoat” harakatlari bo‘ldi. Ular ishlab chiqish jarayonlarini jadallashtirish bilan bir qatorda, shanbaliklar va “transport haftaliklari” tashkil etishda o‘z ifodasini topdi. Turkiston o‘lka partiya komiteti

<sup>21</sup>Xўжаев С. Ўзбекистонда транспортнинг ривожланиши ва аҳамияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 20.

<sup>22</sup>O‘z MA, R-25-fond, 1-ro‘uxat, 56-yig‘ma jild, 396-varaq.

<sup>23</sup>O‘z MA, R-25-fond, 1- ro‘uxat, 56- yig‘ma jild, 290- varaq.

<sup>24</sup>Xўжаев С. Ўзбекистонда транспортнинг ривожланиши ва аҳамияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 18.

<sup>25</sup>Захритдинов Г.З. Развитие пассажирского транспорта Узбекистана: Дисс... канд. эконом. наук. – Ташкент, 1972. – С.19.

<sup>26</sup>Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. – Ташкент: Sharq, 2000. – С. 337.

<sup>27</sup>O‘z MA, R-25-fond, 1- ro‘uxat, 38- yig‘ma jild, 106- varaq.

<sup>28</sup>Железнодорожный транспорт. №1-2. – Москва: Трансжелдориздат, 1943. – С. 9.

tasdiqlagan Nizomga ko'ra, shanbaliklar byurosi tashkil etildi. Birinchi shanbalik 1919-yil 11-oktyabrda Toshkent tovar stansiyasi hududida o'tkazildi, 18-oktyabrda esa butun respublikada shanbaliklar uyushtirildi<sup>29</sup>.

1919-yilda Turkiston Respublikasi Mudofaa Soveti raisining respublika qo'shinlar harakatining rahbariga yuborgan telegrammasida keltirilishicha, Farg'ona frontida poyezdlar qatnovida o'ta ketgan tartibsizlik sodir bo'layotganligi ta'kidlandi. Buning oqibatida esa poyezdlar uchun mo'ljallangan yopiq yo'llarda tartibsiz, nazorat qilinmagan harakatlar tufayli qarama-qarshi yo'nalishlarda to'qnashuv yuz berishi natijasida ko'plab qurbonlar berilayotgani ma'lum qilindi<sup>30</sup>.

Turkiston Respublikasi Sovetlarining IX syezdida okrug komissari Pravdinning Turkistondagi temir yo'l transportining holati yuzasidan bergan axborotida ma'lum qilinishicha, Turkistonda temir yo'llar uzunligi 4618 verst bo'lib, shundan 523 versti vayron etilgan. Oziq-ovqat ta'minotidagi muammolar ham ishni ko'p to'xtab qolishiga ta'sir ko'rsatdi. Ehtiyoj temiryo'lchilarni qopchi savdogarlik (meshochnichestvo<sup>31</sup>) bilan shug'ullanishga, bundan tashqari yegulik izlashga ko'p vaqt sarflashga majbur qilib, oqibatda ishga kelmaslik, tartib buzish holatlarini keltirib chiqardi<sup>32</sup>. Hududlarda dehqonlar zo'rg'a kun kechirishardi. O'tgan yilgi zaxiralari tugagan, ular qishdan chiqmasliklarini bilib, yashayotgan joylaridan, hosilsiz dalalardan "vabo"dan qochganday temir yo'l bo'ylariga yugurib chiqishardi va yuk vagonlariga joylashib olardilar. Ular orasida yuqumli kasalliklar, vabo, ichterlama va bolalar epidemiyasi mavjud edi<sup>33</sup>. 1921-yil 12-iyunda Turkiston Aloqa yo'llari xalq komissarligi bo'yicha e'lon qilingan buyruqqa ko'ra, Sog'liqni saqlash favqulodda komissiyasining vabo vaksinasi bilan emlanmagan shaxslarga temir yo'llar orqali harakatlanish uchun chiptalar berishni taqiqlash to'g'risidagi ko'rsatmasini so'zsiz bajarilishini ta'minlash belgilab berildi<sup>34</sup>.

RSFSR XKSning 1918-yil 23-martdagi "Boshqaruvni markazlashtirish, yo'llarni muhofaza qilish va ularning transport imkoniyatlarini oshirish to'g'risida" gi qarori Aloqa yo'llari xalq komissarligi va Butunrossiya MIQ oldidagina mas'ul ekanligini tasdiqladi. Bundan tashqari barcha tashkilotlarga transport ishlariga aralashmaslik buyurildi<sup>35</sup>. Ushbu markazlashtirish va qayta tashkil etishlar natijasida Turkiston Aloqa yo'llari komissarligi tugatilib, bu komissarlik 1918-yil 14-aprelda Toshkent Aloqa yo'llari Boshqarmasiga aylantirildi<sup>36</sup>. Mavjud yo'llarni boshqarish tuzilmasiga ko'ra, O'rta Osiyo Respublikalari yo'llari to'liq O'rta

<sup>29</sup> Назаров М.Х. Туркистон интервенция ва граждaнлар уруши даврида (1918-1920 йиллар). – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1961. – Б. 196.

<sup>30</sup> О'з МА, R-1- fond, 1- ro'ухат, 166- yig'ma jild, 83- varaq.

<sup>31</sup> Мешочничество – хусусий шахслар томонидан кишлок хўжалик районларидан шахарларга фойда олиш мақсадида белгиланган меъёрлардан ортиқ озиқ – овқат маҳсулотларини ноқонуний олиб ўтиш. Гражданская война и военная интервенция в СССР. Энциклопедия. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – С. 354.

<sup>32</sup> Состояние железнодорожного транспорта Туркестана (Доклад Комиссара округа товарища Правдина на 9 - ом съезде Советов Туркестанской Республики) // Железный путь, 1920 г., 3 октябрь. – № 11.

<sup>33</sup> Арманд Хаммер. Мой век-двадцатый. Пути и встречи. – Москва: Прогресс, 1988. – С. 67.

<sup>34</sup> О'з МА, R-25- fond, 1- ro'ухат, 555- yig'ma jild, 104- varaq.

<sup>35</sup> Гражданская война и военная интервенция в СССР. Энциклопедия. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – С. 376.

<sup>36</sup> О'з МА, R-233- fond, 1- ro'ухат, 3289- yig'ma jild, 12- varaq.

Osiyo temir yoʻlidan va qisman Toshkent yoʻlidan iborat boʻlib, Oʻrta Osiyodagi Aloqa yoʻllari xalq komissari vakili tomonidan boshqarildi<sup>37</sup>. Vaziyatga qaraganda, bu yoʻllarni rayon boshqarmalariga boʻlingan holda boshqarish Markaz taʼsirida mustahkam hokimiyatni oʻrnatishda qayta tashkil etishning birinchi bosqichi edi.

RSFSR Aloqa yoʻllari xalq komissarining 1920-yil 24-maydagi 660-son va Turkfront inqilobiy harbiy Kengashining 31-maydagi 209-son buyruqlar asosida Turkiston yoʻllari Oʻrta Osiyo va Toshkent yoʻllariga ajratilib, har biri alohida boshqarmalar bilan Okrug<sup>38</sup> tarkibida qayta tashkil etildi. Bu Markaz tomonidan Turkiston yoʻllari maʼmuriy tuzilishini tubdan isloh qilish yoʻlidagi ikkinchi yirik tashabbus edi<sup>39</sup>.

1929-1934-yillarda Toshkent temir yoʻli Oʻrta Osiyo temir yoʻlining bir qismi boʻlgan. 1930-yillarga kelib yoʻl yangi texnik vositalar bilan jihozlandi, mustahkamlandi va harakatlanuvchi tarkibni taʼmirlash bazasi yaratildi. 1934-yilda Orenburg va Toshkent temir yoʻllari Oʻrta Osiyo temir yoʻlidan ajralib chiqdi<sup>40</sup>. SSSR XKSning 1936-yil 13-maydagi qarori bilan Toshkent temir yoʻllar Boshqarmasi tashkil etildi<sup>41</sup>. Aloqa yoʻllari xalq komissarining 1936-yil 30-maydagi Oʻrta Osiyo temir yoʻlini ikkiga, yaʼni Toshkent va Ashxobod temir yoʻllariga boʻlish toʻgʻrisidagi buyrugʻi asosida Oʻrta Osiyo temir yoʻllarining boshqarma va liniyasi xodimlari Ashxobod temir yoʻli Boshqarmasiga joylashtirildi<sup>42</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Oʻrta Osiyoda ishlab chiqaruvchi kuchlar mustamlakachilar manfaatini koʻzlab taraqqiy eta boshlagan boʻlsada, bu temir yoʻl transportidan foydalanish ishlab chiqarish munosabatlarini taraqqiyotiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi.

**“1923-1940-yillarda temir yoʻllar va ularning moddiy-texnik bazasi”** nomli dissertatsiyaning ikkinchi bobida tiklanish yillarida temir yoʻl transporti ahvoli, mazkur sohada kadrlar masalasi hamda temir yoʻl tarmoqlarini loyihalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari va faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar tahlil qilingan hamda ulardagi oʻzgarishlar ochib berilgan.

1922-yilga kelib, fuqarolar urushi yillarida vayron etilgan temir yoʻllarning Fargʻona viloyati hududlaridagi 85 verstdan tashqari barchasi deyarli tiklab boʻlindi. Lekin yoʻlning ustki qismi yomon ahvolda qurilganligi hisobiga, baʼzi uchastkalarda poyezdlar tezlikni kamaytirib yurishga majbur boʻldi. Rels va shpallar yetishmasligi tufayli ularni almashtirish imkoni boʻlmadi<sup>43</sup>. Oʻrta Osiyo temir yoʻllarining 1923-yil 10-maydagi 221-sonli buyrugʻiga koʻra, poyezdlar harakatlanishini muhimligiga qarab ularning ishlash tartibi joriy etilib guruhlarga

<sup>37</sup>Oʻz MA, R-18- fond, 2- roʻyxat, 151- yigʻma jild, 12- varaq.

<sup>38</sup>Bu okrug 1922-yil oktabr oyida tugatildi, uning funksiyalari RSFSR Aloqa yoʻllari xalq komissarligining Oʻrta Osiyodagi vakolatli Boshqarmasiga oʻtdi. Oʻz MA, R-233- fond, 1- roʻyxat, 3289- yigʻma jild, 14- varaq.

<sup>39</sup>Oʻz MA, R-25- fond, 1- roʻyxat, 552- yigʻma jild, 14- varaq orqasi.

<sup>40</sup>Большая советская энциклопедия. 2-е изд. Т. 42. – Москва, 1956. – С. 311.

<sup>41</sup>Mazkur boshqaruv 1946-yilgacha saqlandi va SSSR Ministrlar Sovetining 1946-yil 21-maydagi qarori bilan SSSR Aloqa yoʻllari vazirligining Oʻrta Osiyo temir yoʻllar okrugi tashkil qilindi, Toshkent temir yoʻllar Boshqarmasi uning tarkibiga kirdi. Oʻz MA, R-609- fond, 10- roʻyxat, 3776- yigʻma jild, 73- varaq.

<sup>42</sup>Oʻz MA, R-837-fond, 14-roʻyxat, 496-yigʻma jild, 60-varaq.

<sup>43</sup>Oʻz MA, R-18- fond, 2- roʻyxat, 39- yigʻma jild, 66- varaq.

ajratildi<sup>44</sup>. Bundan ko‘zlangan maqsad esa poyezdlarning o‘tkazish tezligini oshirish hamda yo‘llarda harakatni tartibga solish edi. Bundan tashqari 1918-yilda vayron etilgan sobiq Buxoro temir yo‘li sekin-astalik bilan tiklana boshlandi. 1923-yilda Talimarjon – Samsonovo uchastkasi tiklandi. 1924-yilda esa Qarshi stansiyasidan G‘uzor orqali Kitobgacha bo‘lgan 114 verst yo‘l tiklandi<sup>45</sup>. O‘rta Osiyo temir yo‘li uchun katta yutuq, bu Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va Buxoro kabi shaharlarda zamonaviy vokzallarni barpo etish bo‘ldi. Ularning ishi sezilarli foyda keltirdi va qisman yo‘l tanqisligini yengillashtirdi<sup>46</sup>.

1924-yilning birinchi choragi davomida paxta tashish munosabati bilan yo‘lning muntazam majburiy ishlashi, ikkinchi chorakda esa O‘rta Osiyoga importning ko‘payishi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi, qurilish materiallari, mashinalar va turli xil ekish yuklarining ichki o‘tkazilishi tufayli yo‘llardagi yuqori bosim deyarli susaymadi. O‘rta Osiyo respublikalari xalq xo‘jaligining temir yo‘l transportiga bo‘lgan talablari ortib borsada, yo‘lning yomon texnik holati va eskirgan uskunalar tufayli uning ishida muayyan uzilishlarga olib keldi<sup>47</sup>.

1928-yil 1-oktyabrdan boshlab, mamlakat birinchi besh yillik rejalarini bajarishga kirishdi<sup>48</sup>. Yangi temir yo‘l uchastkalarini qurish ishlari davom ettirildi. 1924-yildan 1928-yilgacha bo‘lgan davr ichida 37 km uzunlikdagi Marg‘ilon – Qizilqiya uchastkasi, 274 km uzunlikdagi Qarshi – Kitob uchastkasi, Amudaryo – Surxon, Andijon – Tentaksoy va boshqa uchastkalar qurildi<sup>49</sup>.

Toshkent temir yo‘li 1921-yilning ikkinchi yarmida oziq-ovqat inqirozi tufayli juda katta qiyinchiliklarga uchradi<sup>50</sup>. Yo‘llardagi sanitariya holati yuzasidan Okrug sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘ining ma‘ruzasida keltirilishicha, ishchilar tarkibidagi bemorlar Toshkent yo‘lida 85, O‘rta Osiyo yo‘llarida 75 foizni tashkil etdi. Kasallanish ishchi va xizmatchilarning barcha toifalariga, ya‘ni boshqarmada ham, tarmoqlarda ham mavjud edi. Shu sababdan infeksiyaga chalingan bemorlar o‘rnini Markazdan yuborilgan yangi xodimlar bilan almashtirish talab qilingan<sup>51</sup>. Oziq-ovqat inqirozi, epidemiya tufayli ishchilarning ahvoli yanada og‘irlashdi va ular transportni tashlab ketishga majbur bo‘ldilar.

1923-yil 30-avgustdan - 15-oktyabrgacha Toshkentda mahalliy aholi (musulmonlar) uchun konduktorlik kurslari tashkil etildi<sup>52</sup>. Mazkur kurslarga mahalliy aholini jalb qilishda ularning temir yo‘l liniyalaridan uzoqda yashaganligi, turmushning og‘ir ahvoli kabi omillar salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

1923-yil 1-sentyabr holatiga, O‘rta Osiyo temir yo‘llarida ishchi va xizmatchilarning 1096 nafari yoki 6,2 foizi mahalliy aholi vakillari edi. Toshkent temir yo‘lida esa, mahalliy ishchilar 4 foizni yoki 800 ga yaqin kishini tashkil

<sup>44</sup>Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 100-fond, 2-ro‘yxat, 7-yig‘ma jild, 100-varaq.

<sup>45</sup>O‘z MA, R-1621-fond, 2-ro‘yxat, 88- yig‘ma jild, 12-varaq.

<sup>46</sup>O‘z MA, R-1-fond, 1-ro‘yxat, 100- yig‘ma jild, 6- varaq.

<sup>47</sup>O‘z MA, R-88-fond, 1-ro‘yxat, 347- yig‘ma jild, 20- varaq.

<sup>48</sup>Захриддинов Ф.З. Ўзбекистонда пассажирлар ташишининг ўсиши. – Тошкент: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти, 1969. – Б. 9.

<sup>49</sup>Убайдуллаев И., Аброров З., Захриддинов Ф. Ўзбекистон транспорти. – Тошкент: Ўзбекистон КП МКнинг нашриёти, 1969. – Б. 6.

<sup>50</sup>O‘z MA, R-21-fond, 1-ro‘yxat, 171- yig‘ma jild, 37-varaq.

<sup>51</sup>O‘z MA, R-21-fond, 1-ro‘yxat, 171- yig‘ma jild, 37-varaq.

<sup>52</sup>O‘z MA, R-1621-fond, 2-ro‘yxat, 35- yig‘ma jild, 11-varaq.

etdi<sup>53</sup>. SSSR Aloqa yo'llari xalq komissarligining 1924-yil 26-yanvarda "Mahalliy tilda parallel ish yuritishni kiritish va transportga mahalliy tub joy aholini jalb qilish to'g'risida"gi buyrug'i chiqarildi<sup>54</sup>. Yuqoridagi ko'rsatmalarni amalga oshirish va mahalliy aholini transportga jalb qilish maqsadida joylarda maxsus mahalliy aholi, ya'ni qirg'iz, qozoq va o'zbeklarni tayyorgarlik va bilimni talab qilmaydigan bo'sh ish o'rinlariga (jumladan, xat tashuvchi, qorovul, suv qaynatuvchi, kunbay ishchi, hammomchi, ko'cha supuruvchi, telegraf liniyalarini ta'mirlovchi ishchi, otboqar, aravakash) joylashtirishga kirishildi<sup>55</sup>.

Lekin temir yo'lga jalb qilingan kadrlarning o'z vazifasini bajarishdagi muammolari ham ish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 1926-yil 5-aprelda O'rta Osiyo temir yo'llari boshqarmasining barcha Davlat siyosiy boshqarmasining yo'l-transport bo'limi boshliqlari, temir yo'l rayonlariga yuborgan maxfiy xatiga ko'ra, so'nggi yillarda ish joyida va navbatchilikda mast bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni ortib bordi. Keyingi o'rinlarda ushbu holat sodir etilsa, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, siyosiy boshqarma agenti dalolatnoma tuzib, rayon boshqarmasiga taqdim etishi hamda zudlik bilan qat'iy chora ko'rish belgilab berildi<sup>56</sup>.

Qabul qilingan qarorlar va ishlab chiqilgan rejalarga qaramay temir yo'l transportini o'zbeklashtirish masalasi nihoyatda sekinlik bilan amalga oshirilib bordi. Jumladan, O'zbekiston SSR MIQ huzurida O'rta Osiyo temir yo'li vakili Bobakning ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekistonda 1927-yilning 1-sentyabr holatiga ko'ra, temir yo'llarda yevropalik ishchilar 12 217, mahalliy millat ishchilari esa 1903 nafarni, ya'ni nisbatan atigi 15,5 foizni tashkil etdi, xolos<sup>57</sup>.

1932-yilning birinchi yarmida mahalliy millat vakillaridan ishchilar soni 69,6 foizga ko'paydi. Shunga qaramay, ular ishchilar umumiy salmog'ining 28,6 foizini (O'rta Osiyoning temir yo'llarining 4 ta rayoni joylashgan O'zbekiston hududidagi 28153 nafar ishchilarning 8055 nafarini o'zbeklar va mahalliy oz sonli millat vakillari) tashkil etdi xolos<sup>58</sup>.

Toshkent temir yo'llarining Ikkinchi jahon urushidan oldingi va urush davridagi ishchi kadrlar holati bo'yicha hisobotiga ko'ra, yo'llarda o'tkazilgan maxsus tekshiruv natijasida 1940-yilning ikkinchi yarmida avval sudlangan va quloq qilinganlardan 514 kishi aniqlandi. Temir yo'l transporti sohasida faoliyat yuritgan bu shaxslar "ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda intizomsizlikka yo'l qo'ygan, ishni sifatsiz bajarib, ishlab chiqarishni tashkil etishga salbiy yondashgani uchun" ularni transportda ishlashdan ozod etildi<sup>59</sup>.

Buxoro okrugi ijroiya qo'mitasi prezidiumining 1930-yil 8-martdagi yig'ilishida, Buxoro-Qiziltepa temir yo'li qurilishi masalasi muhokama qilindi. O'zbekiston SSR Davlat rejalashtirish qo'mitasi vakili Vvedenskiyning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro-Qiziltepa temir yo'l liniyasini qurish bo'yicha

<sup>53</sup>O'z MA, R-18- fond, 2-ro'yxat, 151-yig'ma jild, 40-varaq.

<sup>54</sup>O'z MA, R-1621- fond, 2-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 72-varaq.

<sup>55</sup>O'z MA, R-1621- fond, 2-ro'yxat, 7-yig'ma jild, 72-varaq.

<sup>56</sup>Samarqand viloyat davlat arxivi 1148- fond, 1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 115-varaq.

<sup>57</sup>O'z MA, R-86- fond, 1-ro'yxat, 4478-yig'ma jild, 12-varaq orqasi.

<sup>58</sup>O'z MA, R-95- fond, 2-ro'yxat, 1316-yig'ma jild, 1-varaq.

<sup>59</sup>O'z MA, R-609-fond, 10-ro'yxat, 56-yig'ma jild, 6-varaq.

tadqiqot ishlari yakunlanganini inobatga olib, bu hududlarda ishni 1930-1931-yillarda boshlash to'g'risida qaror qabul qildilar<sup>60</sup>.

Mamlakatning boshqa iqtisodiy rayonlari bilan aloqalarni har tomonlama kuchaytirish, mavjud tabiiy boyliklardan unumli foydalanish maqsadida yangi temir yo'llar qurildi. 1928-yilda Quvasoy - Qizilqiya va 1932-yilda Jalolobod - Ko'kyong'oq temir yo'llari qurildi. Bu yo'llar ko'mir konlarini ishga solish va ulardan foydalanish imkonini berdi. Farg'ona vodiysida paxtachilikni taraqqiy ettirish uchun Asaka - Shahrixon va Qorasuv - O'sh kabi uncha uzun bo'lmagan temir yo'l shoxobchalari qurildi<sup>61</sup>.

G'allaning aylanma yo'llar bilan olib kelinishi juda qimmatga tushardi. Kundalik ehtiyoj mollarini yetkazib berish zarurati O'rta Osiyo va Qozog'iston janubiy-sharqida temir yo'l tarmoqlarini kengaytirishni taqozo etdi<sup>62</sup>. 1926-yilda Frunze-Semipalatinsk yo'lini qurish qarori qabul qilindi, chunki g'alla uzoq aylanma yo'llar bilan olib kelinardi va bu katta xarajatga sabab bo'lardi. Sibir g'allasini Turksib orqali O'zbekistonga keltirilishi natijasida respublikada g'alla ekinlari maydoni 1928-yildagi 577,4 ming o'rniga 1932-yili 206,9 ming gektarni tashkil etdi. Paxta maydoni shu davr ichida 588,5 ming gektardan 967,2 mingga yetkazildi<sup>63</sup>. Og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga yetishtirilgan paxtaga munosib haq to'lanmadi. Shunga qaramasdan, Turkiston - Sibir temir yo'li O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. 1929-yildayoq Turkiston-Sibir temir yo'li orqali 1 mln 700 ming pud g'alla tashildi. Yangi liniyalar orqali qishloq xo'jaligi mashinalari va texnikasi, urug'lik va mineral o'g'itlar tashib keltirildi<sup>64</sup>.

O'zbekiston SSR XKSning 1932-yil 15-avgustdagi "Toshkent tovar stansiyasi yukini kamaytirish to'g'risida" gi qarori e'lon qilindi. Bu yerda yuk tashish me'yorlarini surunkali bajarmaganligi sababli stansiya ishida o'ta qoniqarsiz holatlar aniqlandi. Ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent tovar stansiyasida olib chiqib ketilmagan yuklar 298 ta vagonni tashkil etib, shundan 180 ta vagon transport uyushmasiga va 118 ta vagon boshqa transport hamda xo'jalik tashkilotlariga tegishli edi<sup>65</sup>.

1934-yil oktabrida O'rta Osiyo temir yo'li uchun kuniga 200 ta vagon zarur bo'lgan bo'lsa-da, Aloqa yo'llari xalq komissarligi ikkinchi toifadagi yuklar uchun atigi 20 ta vagon ajratgan<sup>66</sup>. Bu holat tez ayniydigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'z vaqtida yetkazilmasligiga, iqtisodiy zararlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Shunga qaramay, 1936-yilda Toshkent temir yo'li orqali yuk tashish hajmi ortib borgan<sup>67</sup>. 1940-yilga kelib O'zbekiston temir yo'llarining yo'l xo'jaligi qadimgi relslar o'rniga yangi relslarning almashtirilishi hisobiga

<sup>60</sup>Вухоро viloyat davlat arxivi, 26-fond, 1-ro'yxat, 66-yig'ma jild, 3-varaq.

<sup>61</sup>Хўжаев С. Ўзбекистонда транспортнинг ривожланиши ва аҳамияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 36.

<sup>62</sup>История железнодорожного транспорта России и Советского союза (1917-1945 гг.) Т. 2. – Санкт-Петербург – Москва, 1997. – С. 53.

<sup>63</sup>Хужаев С. Ўзбекистонда транспортнинг ривожланиши ва аҳамияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 33.

<sup>64</sup>История железнодорожного транспорта России и Советского союза (1917-1945 гг.) Т.2. – Санкт-Петербург-Москва, 1997. – С. 66.

<sup>65</sup>O'z MA, R-837-fond, 10-ro'yxat, 40-yig'ma jild, 153-varaq.

<sup>66</sup>O'z MA, R -837- fond, 13-ro'yxat, 481-yig'ma jild, 60-varaq.

<sup>67</sup>O'z MA, R -609- fond, 10-ro'yxat, 35-yig'ma jild, 2-6-varaqlar.

birmuncha yaxshilandi. Sekin-astalik bilan temir yo‘llar texnik jihatdan qayta jihozlana boshladi<sup>68</sup>.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, temir yo‘l transportining rivojlanishi va undan foydalanish jarayonlari shuni ko‘rsatdiki, sovet hokimiyati barcha o‘rinlarda avvalo Markaz manfaatlarini ustun qo‘yishi, pirovardida esa o‘lkani SSSRning xomashyo bazasiga aylantirilishiga xizmat qildi, xolos.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Ikkinchi jahon urushi yillarida temir yo‘l transporti”** deb nomlanib, unda Ikkinchi jahon urushining boshlanishi sharoitida temir yo‘l transporti ishining front va xalq xo‘jaligi manfaatlari uchun qayta qurilishi, temiryo‘lchilarning urushda qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi yoritilgan.

Sovet tarixshunosligida Ikkinchi jahon urushi davrida aholini va sanoatni evakuatsiya qilish masalasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Urush boshlanganidan so‘ng, mamlakat mudofaasi va iqtisodiy salohiyatini saqlab qolish maqsadida evakuatsiya ishlari shoshilinch tarzda tashkil etildi<sup>69</sup>. Harbiy harakatlarning ustuvorligini ta‘minlash uchun temir yo‘l qatnovi maxsus jadval asosida yo‘lga qo‘yildi<sup>70</sup>. O‘zbekistonga qisqa muddat ichida 17000 ta sanoat uskunalari ortilgan vagonlar yetkazildi, ularni tushirish va joylashtirishda yuzlab yuk tashuvchilar safarbar etildi<sup>71</sup>.

O‘rta Osiyogacha eshelonlarni kelish jarayoni bevosita asosiy transport vositasi - temir yo‘llar orqali amalga oshirildi. Albatta, bu jarayonlar o‘ta murakkab va qiyin sharoitlarda amalga oshirildi. Mamlakatning qator rayonlarida temir yo‘l tarmoqlari ozligi sababli tashkiliy ishlar katta bosim ostida olib borildi<sup>72</sup>. 1941-1942-yilning o‘zidagina Toshkent temir yo‘li mudofaa va xalq xo‘jalik yuklaridan tashqari 2 700 yo‘lovchi sostavlarini tashib berdi. Bundan tashqari, O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarining 17 600 vagondan iborat uskunalari tashib keltirildi<sup>73</sup>.

Ko‘p sonli qo‘shinlarni tezkor frontga hamda alohida qismlarni belgilangan joyga yetkazish zarurati tufayli bu bilan bog‘liq bosim Toshkent temir yo‘llariga tushdi. Ishchilar yuklarni ortish va tushirish hamda tezkor harakatlanishini ta‘minlab, Ashxobod va Turkiston – Sibir temir yo‘llaridan keladigan yuklar oqimini qabul qildilar<sup>74</sup>. O‘rta Osiyoga evakuatsiya qilingan barcha yuklar Toshkent yo‘li orqali o‘tdi. Ikkita yirik, ya‘ni harbiy va evakuatsiya qilingan yuklar oqimi o‘tish yo‘llari hamda stansiyalarni haddan tashqari to‘lishini keltirib chiqardi, bu esa temir yo‘llarda poyezdlarni o‘tishini ta‘minlashni qiyinlashtirdi.

<sup>68</sup>Захритдинов Г. З. Развитие пассажирского транспорта Узбекистана: Дисс. .. канд. эконом. наук. –Ташкент, 1972. – С. 39-40.

<sup>69</sup>Куманев Г. А. Война и эвакуация в СССР. 1941-1942 годы. // Новая и новейшая история. – Москва, 2006. – №6. – С. 12.

<sup>70</sup>Чадаев Я. Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). – Москва: Мысль, 1985. – С. 324.

<sup>71</sup>Чадаев Я. Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). – Москва: Мысль, 1985. – С. 327.

<sup>72</sup>Ковалёв И.В. Транспорт в Великой Отечественной войне (1941-1945 гг.). – Москва: Наука, 1981. – С.2.

<sup>73</sup>Ўзбекистон ССР тарихи. Т. IV. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.103.

<sup>74</sup>Хушмурадов А. Железнодорожники Ташкентской магистрали в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг.: Дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. – С. 45.

Aris, Toshkent, Ziyaviddin va boshqa shu kabi yirik stansiyalar qiyinchiliklarga duch keldi<sup>75</sup>.

Urush yillarida O'rta Osiyo temir yo'llar qurilishi boshqarmasi jamoasi tomonidan 324 km temir yo'l, 437 ta ko'prik va temir yo'l transporti sex hamda korxonalari uchun kerakli bo'lgan 27 420 kv.m. maydonlar qurib foydalanishga topshirildi. Urush davrida O'rta Osiyoda temir yo'llar qurilishi boshqarmasi tomonidan ishlab chiqarishga yangi qabul qilingan 3 677 nafar mahalliy ishchilar kasblarga o'qitildi<sup>76</sup>.

Temir yo'l transportida qat'iy tartib o'rnatish va intizomsizlikka chek qo'yish maqsadida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 15-aprelda "Barcha temir yo'llarda harbiy holatni joriy etish to'g'risida" gi farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra, barcha temir yo'llarda harbiy holat e'lon qilindi. Bundan tashqari temir yo'l transporti ishchisining xizmat bo'yicha jinoiy javobgarligi Qizil armiya harbiy xizmatchilariga tenglashtirildi<sup>77</sup>.

1943-yil boshlariga kelib, mamlakatning boshqa temir yo'llarida bo'lgani kabi, Toshkent magistralida ham vaziyat ancha murakkablashdi. Bu murakkablik, birinchidan, yuk tashish masalasining 1942-yilga nisbatan 1943-yilda ko'payishi, ikkinchidan, bu davrga kelib O'rta Osiyoga evakuatsiya qilingan mudofaa korxonalarining to'la quvvat bilan ishlay boshlagani hamda O'zbekistonda bir qator muhim sanoat obyektlarini qurish ishlari bilan bog'liq holda yuzaga keldi<sup>78</sup>.

Urushning dastlabki kunlaridanoq Vatan himoyasi uchun otlangan ko'p ming kishilik ko'ngillilar qatorida Toshkent magistrali temiryo'lchilari ham bor edi. 1941-yil 22-iyunda Ursatyevsk parovoz deposi ishchi va xizmatchilari mitingda o'zlarini urushga safarbar etilgan deb hisoblashlarini e'lon qildilar<sup>79</sup>.

Hukumat va xo'jalik organlari tomonidan ayollarni transportda ishlashga jalb qilish bo'yicha tadbirlar olib borildi. Ayollarni ommaviy kasblarga tayyorlash bo'yicha o'quv kurslari va to'garaklar tashkil qilindi. Toshkent yo'li boshlig'ining 1941-yil 30-iyundagi buyrug'i bilan 1 600 nafarga yaqin ayolni transportga jalb qilish va ularni temir yo'l kasblariga o'rgatish nazarda tutildi<sup>80</sup>.

Evakuatsiya qilingan temiryo'lchilar va ularning oilalarini qabul qilish 1941-yilning iyul oyidan boshlandi va 1942-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yo'llar bo'yicha ishchilar 1 170 kishi va ularning oila a'zolari 1 462 nafarni tashkil etdi. Barcha ko'chirib keltirilgan temiryo'lchilar va ularning oilalari turar-joy bilan ta'minlandi va muhtojlarga kiyim-kechak, poyabzal va boshqa zarur maishiy buyumlar berilib, deyarli barchasi o'z sohasiga ko'ra ish bilan ta'minlandi<sup>81</sup>.

Hukumat va xo'jalik organlarining harakati natijasida evakuatsiya qilingan bolalarga e'tibor va g'amxo'rlik borasidagi O'zbekistonda keng tarqalgan umumxalq vatanparvarlik harakatini Toshkent temir yo'li ishchilari ham qo'llab-quvvatladilar. Evakuatsiya qilingan bolalarga yordam fondini tashkil qilish uchun

<sup>75</sup>O'z MA, R- 609- fond, 9-ro'xat, 222-yig'ma jild, 29-varaq.

<sup>76</sup>Вставай, страна огромная! Сборник документов и материалов. – Ташкент: Узбекистан, 1990. – С. 237.

<sup>77</sup>Железнодорожный транспорт. – Москва, 1943. – №3-4. – С. 9-10.

<sup>78</sup>O'z MA, R - 609-fond, 9-ro'xat, 222-a - yig'ma jild, 100- varaq.

<sup>79</sup>Транспортный рабочий. 26 июня 1941 года.

<sup>80</sup>O'z MA, R -1604-fond, 1-ro'xat, 222-yig'ma jild, 2- varaq.

<sup>81</sup>O'z MA, R -609-fond, 10-ro'xat, 56-yig'ma jild, 8-varaq.

kurashda Toshkent magistrali yoshlari faol qatnashdi. Yoshlar bir kunlik ish haqlarini bolalarga yordam fondiga o'tkazish tashabbusi bilan chiqdilar<sup>82</sup>.

Toshkent temir yo'li ishchi va xizmatchilari urush qatnashchilarining oilalarini uy-joylarini ta'mirlash, ularni yoqilg'i bilan ta'minlash, ishga joylashtirish, mehnatga layoqatsizlik nafaqasini olish kabi ishlarda ko'maklashdi. Toshkent temir yo'lida jami 5 505 nafar urush qatnashchilari va Ikkinchi jahon urushi nogironlari oilalari bo'lib, faqatgina 1942-yilning o'zida ushbu oilalarga 242 ming rubllik turli ko'rinishdagi yordam ko'rsatildi<sup>83</sup>.

Urush boshlangan kundanoq, Samarqand temiryo'lichilari transport ishini urush talabiga muvofiq qayta qurishga qizg'in kirishdilar. Temir yo'l sostavlarini faqat mamlakatning Yevropa qismiga o'tkazish tezligi qariyb bir yarim baravar ko'paytirildi, lokomotivlarning bir ta'mirdan ikkinchi ta'mirgacha ishlash davri ikki baravar uzaytirildi. Urush natijasida ko'mir keltirish qiyinlashib qolganligi sababli 1941-yilning oxiri va 1942-yilning boshida Samarqand deposidagi 31 ta bug' otashxonasi qayta qurilib, neft bilan ishlaydigan bo'ldi<sup>84</sup>.

Toshkent vokzali qoshidagi evakuatsiya punktiga 25 kishilik sanitariya brigadasi va 40 kishidan iborat temiryo'lichilar jamoasining faollari birlashtirib qo'yildi. Qolaversa, 907 nafar faollar ko'chirib keltirilgan kishilar o'rnatirilgan joylarda ishladilar. Ular bolalar uchun 6000 ta issiq kiyim to'pladilar. Faqat Toshkent temir yo'l stansiyasining Qizil yarim oy jamiyati faollarining o'zi 73 nafar bolani o'z tarbiyalariga oldilar. Issiq kiyim sotib olish uchun esa 78 278 rubl pul to'plashdi<sup>85</sup>.

O'rta Osiyo yangi temir yo'l liniyasini qurish boshqarmasining siyosiy ishlar bo'yicha axborotida 1943-yilning yanvaridan 15-aprelegacha bo'lgan muddatda mehnat intizomini buzish holatlari quyidagicha bo'ldi: 443 nafar mehnatdan qochgan shaxslar, 254 ta qoidabuzarlik; 15-apreldan 30-maygacha 266 ta qoidabuzarlik bo'lib, ulardan 126 nafari mehnat qilishdan bosh tortganlar edi<sup>86</sup>. Ikkinchi jahon urushi yillarida mehnat intizomini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Birgina 1943-yil dekabr oyida ishlab chiqarishdan ruxsatsiz chiqib ketish qoidalari bo'yicha jami 149 ta qonunbuzarlik qayd etildi<sup>87</sup>.

1943-1944-yillar davomida Toshkent yo'lidan 7 222 nafar temiryo'lichi reevakuatsiya qilindi. Shu yillar davomida mahalliy kadrlar orasidan ozod etilgan yo'llarga maxsus shakllantirilgan 12 ming va 1945-yilda esa 1 183 kishi yuborildi<sup>88</sup>. Transportni doimiy ravishda mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash manbalaridan biri davlat mehnat zaxirasi tizimi bo'ldi. Hukumat FZO maktablari, hunarmandchilik va temir yo'l bilim yurtlarida mehnat zaxirasini tayyorlashga

<sup>82</sup>Транспортный рабочий. 11 февраля 1942 года.

<sup>83</sup>O'z MA, R-1604-fond, 1-ro'yxat, 861-yig'ma jild, 26-varaq.

<sup>84</sup>Самарқанд тарихи. Т. 2. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 209.

<sup>85</sup>Бозоров Ю. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон оммавий-мудофаа ташкилотлари (1941-1945 йиллар). – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 30.

<sup>86</sup>O'z MA, R-2585- fond, 1-ro'yxat, 103- yig'ma jild, 15-varaq.

<sup>87</sup>O'z MA, R-2585- fond, 1-ro'yxat, 103- yig'ma jild, 31-varaq.

<sup>88</sup>O'z MA, R-609-fond, 9-ro'yxat, 222a -yig'ma jild, 45- varaq.

e'tibor qaratdi<sup>89</sup>. 1942-1945-yillarda ishchilar tarkibida ayollarning umumiy salmog'i 16,9 foizga ortdi<sup>90</sup>. 1942–1944-yillar davomida yetakchi kasblarda va umumiy xizmat sohasida ayollar ulushi izchil ortib bordi. Jumladan, 1942-yilda yetakchi kasb vakillarining 17 280 nafaridan 3 577 nafari (20%) ayollar bo'lgan bo'lsa, 1943-yilda 16 992 ishchidan 4 233 nafari (24,3%) va 1944-yilda esa 16 395 ishchidan 3 933 nafari (24%)ni ayollar tashkil etgan<sup>91</sup>.

Urush davrida kadrlar tanqisligiga qaramay, ozod qilingan hududlardagi temir yo'l tarmoqlarini tiklashga 8 909 nafar yetakchi soha mutaxassislari, jumladan, 1945-yilda 1 183 kishi safarbar etildi<sup>92</sup>. Shu bilan birga, aholi o'rtasida olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida 1945-yilda 2 694 kishi temir yo'l ishlariga jalb etilib, ulardan 801 nafari temiryo'lchilarning oila a'zolari bo'lgan<sup>93</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonga sanoat uskunalari va evakuatsiya qilingan aholi qisqa muddatda temir yo'llar orqali yetkazildi. Bu jarayonlar uchun maxsus hukumat komissiyasi tashkil etildi, biroq temir yo'l infratuzilmasining yetarli emasligi sababli ko'chirish murakkab sharoitlarda amalga oshirildi.

## XULOSA

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida temir yo'l transportining tutgan o'rni va roli tarixining tadqiqi natijasida quyidagi **xulosalar** chiqarildi:

1. Bolsheviklar hokimiyatni qo'lga kiritgach, e'tiborni temir yo'lga qaratdilar; bu Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining davomiy ko'rinishi edi. O'zbekistonda O'rta Osiyo va Toshkent temir yo'llari faoliyat yuritdi. Oktyabr inqilobidan keyingi inqiroz ishchilar ahvolini og'irlashtirdi. Dastlab xususiy temir yo'llar davlat jamiyatlariga topshirildi, so'ng butunlay davlat ixtiyoriga o'tkazildi. O'rta Osiyo temir yo'llarida harbiy holat joriy etilib, yoqilg'i taqchilligi transport tizimiga jiddiy tahdid tug'dirdi.

2. Temir yo'l transportini tiklash sovetlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, buning uchun shanbaliklar va "transport haftaliklari" o'tkazildi. Og'ir mehnat sharoitlari va ochlik sabab ishchilarning chiqib ketishi, epidemiyalar esa transport ishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Vabo vaksinasi bilan emlanmaganlarga chiptalar berish taqiqlandi. Aloqa yo'llari komissarligi tashkil etilib, uning tuzilmasi bir necha bor o'zgartirildi. Markazlashtirish, uchastkalarga mas'ul tayinlash va tartibni harbiy otryadlar orqali ta'minlash choralar ko'rildi.

3. Transportni qayta tiklash uchun chaqirilgan jangchilarning shaxsiy tarkibida temir yo'l mulkini talon-taroj qilish, pora olish va boshqa jinoyatlar orqali temir yo'l xo'jaligiga zarar yetkazgan shaxslar jazoga hukm qilindi va otib tashlandi. Mehnat dezertirlariga qarshi kurash bo'yicha jarima guruhlari tuzilib, ularga ishga muntazam kechikkan, xizmatdan oldinroq ketgan, temir yo'l mol-

<sup>89</sup>Хушмурадов А. Железнодорожники Ташкентской магистрали в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг.: Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. – С. 70.

<sup>90</sup>O'z MA, R-609-fond, 9-ro'yxat, 222 a -yig'ma jild, 31- varaq.

<sup>91</sup>O'z MA, R-609-fond, 3-ro'yxat, 222 a -yig'ma jild, 21, 26, 47- varaqlar.

<sup>92</sup>O'z MA, R-609-fond, 10-ro'yxat, 51-yig'ma jild, 4-varaq.

<sup>93</sup>O'z MA, R-609-fond, 10-ro'yxat, 51-yig'ma jild, 9-varaq.

mulkiga zarar yetkazgan hamda xizmat vazifalariga beparvolik bilan qaragan temir yo‘l xodimlari, mutaxassis va ishchilar jalb qilindi. Jazo guruhlari temir yo‘l transportini tiklashdagi doimiy va vaqtinchalik og‘ir hamda murakkab ishlarni bajardi.

4. O‘zbekistonning alohida ma‘muriy birliklarining temir yo‘l transportida xizmat ko‘rsatish qobiliyatining tahliliga ko‘ra, tarmoq zichligi hudud bo‘yicha Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida birmuncha qoniqarli ekanligini ko‘rish mumkin. Hisoblagich sifatida hududni emas, balki aholini olinsa, tegishli ko‘rsatkichlar Farg‘ona va Toshkentda aholiga qoniqarli xizmat ko‘rsatilganligini bilish mumkin. Temir yo‘l transporti ishini yaxshilash to‘g‘risidagi hukumat ko‘rsatmalarini bajarishga joylarda partiyaning siyosiy bo‘limlari rahbarlik qildi. Poyezdlar guruhlarga ajratilib, ba‘zilarini tarmoq bo‘ylab navbatsiz harakat qilishi belgilandi.

5. O‘rganilayotgan davrda Amudaryo va Sirdaryo hududlarida toshqinlarga qarshi kurash bo‘yicha maxsus tashkilot faoliyat olib borgan. O‘rta Osiyo temir yo‘llarining iqtisodiy xizmati har bir tiklanayotgan temir yo‘l liniyasi joylashgan hududlarning iqtisodiy holatini chuqur o‘rgangan. Fuqarolar urushi yillarida transportga ajratilgan mablag‘larning katta qismi temir yo‘l sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, yo‘lovchi tashishdagi qulayliklar ta‘minlanmagan va poyezdlar haddan tashqari yuklangan. Temir yo‘l eng qoloq va iqtisodiy jihatdan og‘ir ahvolda bo‘lgan soha bo‘lib qolgan, uning qurilishi davlat Reja qo‘mitasi va Aloqa yo‘llari xalq komissarligining iqtisodiy asoslantirilgan qarorlariga bog‘liq bo‘lgan.

6. Temir yo‘l ishchilarining asosiy qismini yevropa millatlariga mansub shaxslar tashkil etgan bo‘lib, mahalliy aholini past lavozimlarga tayyorlash ishlari boshlandi. Mablag‘ yetishmovchiligi sababli kasb-hunar ta‘limi kengaytirilmagan, malakali kadrlar tanqisligi kuzatildi. Tergov natijasida avval sudlangan va quloq qilingan shaxslar aniqlanib, lavozimlaridan ozod etilgan, shu bilan birga, temir yo‘l tizimida ayollar ulushi ortgan.

7. Temir yo‘llar qurilishi jarayonida qator muammolar yuzaga kelgan bo‘lib, ular yo‘lning harbiy va mustamlakachilik maqsadlarida shoshilinch qurilishi bilan bog‘liq edi. Markaziy temir yo‘llardan farqli ravishda bu hududga sifatsiz materiallar yuborilgani yo‘l sifati pastligiga sabab bo‘ldi. Qurilish va loyihalashtirish Rossiya imperiyasining paxta manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa-da, Xorazm kabi paxta yetishtiruvchi hududlar temir yo‘l bilan ta‘minlanmadi.

8. Urush davrida O‘rta Osiyoga eshelonlar harakati asosan temir yo‘llar orqali amalga oshirilib, bu jarayon murakkab va og‘ir sharoitlarda kechdi. Harbiy va evakuatsion yuklar oqimining keskin ortishi stansiyalar va yo‘llarda to‘planishlar hamda manevrlarni murakkablashtirdi. Ozod etilgan hududlarga yordam ko‘rsatish maqsadida O‘rta Osiyo respublikalaridan qurilish materiallari, texnik mutaxassislar va ishchi kuchi yuborildi.

9. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston temir yo‘l transporti yangi shoxobchalar qurilishi va texnika sifatining yaxshilanishi hisobiga rivojlandi. Urush boshlanganidan boshlab frontga jo‘natilgan ko‘ngillilar safida Toshkent

temiryo'lichilari ham faol qatnashdi. Transport sohasiga ayollarni jalb qilish bo'yicha hukumat va xo'jalik organlari tomonidan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mehnat intizomini mustahkamlash hamda temir yo'l tizimini mutaxassislar bilan uzluksiz ta'minlash davlat mehnat zaxiralari tizimi orqali hal etildi.

Tadqiqot ishi natijalari bo'yicha chiqarilgan xulosalar va tadqiq etilgan muammolar yechimlari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ilgari surishga asos bo'ldi:

1. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida temir yo'l transportining tutgan o'rni va roli masalalarini hamda uning faoliyat bosqichlari jarayonlarini kompleks ilmiy tahlil asosida o'rganish.

2. Mazkur ilmiy tadqiqot materiallari asosida transport sohasi tarkibidagi muhim yo'nalish – temir yo'l tarixini umumlashtirish maqsadida davlat tarixiy va madaniy meros muzeylarining tarix bo'limlari uchun tematik illyustratsiyalar, arxiv hujjatlari hamda boshqa tarixiy manbalarni tayyorlash va ularni tegishli ekspozitsiyalarga joylashtirish tavsiya etiladi.

3. Transport yo'nalishida tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan darsliklar va o'quv qo'llanmalarni O'zbekiston temir yo'llari tarixiga oid yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitish, shuningdek, temir yo'l tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tizimli o'rgatishga xizmat qiluvchi "O'zbekistonda temir yo'l tarixi" nomli maxsus o'quv kurslarini joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

4. Temir yo'l transporti sohasida islohotlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash yo'lida mavjud to'siqlarni bartaraf etish hamda ularni muvofiqlashtirish, yuk tashish hajmini oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini ko'rish, korxonalarni modernizatsiya qilish, temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, lokomotiv va vagonlar parkini yangilash bo'yicha loyihalar hamda dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/31.12.2020. Tar.60.01. ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИМЕНИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КУРБАНОВ БАХТИЯР ЖУРАБАЕВИЧ**

**ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫЙ ТРАНСПОРТ В СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И  
РЕШЕНИЯ (1917-1945 ГОДЫ)**

**07.00.01–История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Андижан – 2025**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за B2025.1.PhD/Tar470

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Андижанского государственного университета имени З.М.Бабура (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz))

**Научный руководитель:**

**Расулов Абдулла Нуритдинович**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдуллаев Музробжон Гуломович**  
доктор исторических наук, профессор

**Тогаева Анора Зайниддиновна**  
кандидат исторических наук, доцент

**Ведущая организация:**


**Национальный университет Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека**


Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней за номером DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01 при Андижанском государственном университете имени Захириддина Мухаммада Бабура « 30 » 05 2025 года в 10:00 часов (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, д.129. Здание Исторического факультета Андижанского государственного университета имени З. М. Бабура, 1-этаж, 108-аудитория. Тел.: (0374) 225-73-21; факс: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu\_info@edu.uz. Андижанский государственный университет имени З. М. Бабура).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета имени Захириддина Мухаммада Бабура (зарегистрировано под номером 2094, АЧ). Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, д.129. Тел.: (0374) 223-84-33; факс: (0374) 223-88-30).

Автореферат диссертации разослан « 14 » 05 2025 года.  
(протокол реестра за номером 40 от « 15 » 05 2025 года)



  
**Р.Т. Шамсутдинов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению учёных степеней, д.и.н.,  
профессор

  
**М.О.Алихожиев**  
Учредитель секретарь Научного совета по  
присуждению учёных степеней, к.и.н.,  
доцент

  
**У.С. Абдуллаев**  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.и.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях глобализации и интеграционных процессов, происходящих в мире, значение транспорта становится всё более важным. Железнодорожный транспорт, являясь одним из основных средств развития социальной и экономической инфраструктуры страны, играет важную роль в соединении различных государств и регионов, а также в формировании единого экономического пространства. В связи с отсутствием у Республики Узбекистан прямого выхода к морю её внешнеэкономические связи в основном связаны с развитием транспортной системы страны как части международной транспортной инфраструктуры Центральной и Южной Азии. В данном случае географическое положение Узбекистана определяет ключевую роль железных дорог в транзитных перевозках, а также в транспортировке экспортно-импортных товаров.

С ростом значения железнодорожного транспорта, являющегося одной из основных отраслей экономики, в настоящее время важной задачей становится изучение его исторических особенностей. Увеличение объёмов товарооборота и расстояний перевозки грузов, лежащих в основе материального благосостояния общества, играет важную роль в развитии экономики и обеспечении межрегиональной специализации. Именно с этой целью в ведущих научных центрах мира изучаются проблемы истории и развития железнодорожной отрасли. Это касается целей реформ в железнодорожном транспорте и предпринимаемых в данной сфере мер, что обусловило необходимость решения ряда важных задач. В частности, в направлении ускоренного развития национальной экономики и обеспечения высоких темпов роста, обозначенных в «Стратегии развития», поставлены задачи повышения привлекательности междугородних и пригородных железнодорожных перевозок, развития рынка транспортных и логистических услуг и инфраструктуры, доведения уровня электрификации железнодорожной инфраструктуры до 60 процентов, а также расширения «зелёных коридоров» для внешней торговли и транзитных возможностей в транспортной сфере<sup>1</sup>.

В последние годы большое внимание уделяется развитию железнодорожного транспорта, который является одной из ключевых отраслей экономики Узбекистана. Строятся новые железнодорожные линии, укрепляется материально-техническая база. Следует отметить, что деятельность железнодорожного транспорта имеет важное значение не только для его производственной инфраструктуры, но и для экономической, социальной и культурной сфер. В этой области существует множество проблем, таких как условия восстановления и строительства железнодорожных сетей, вопросы заработной платы, обеспечения жильём,

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами. 2022 й. 4 (1024) - сон. – Б. 11–22.

здравоохранения, а также подготовки национальных кадров, что требует отдельного изучения исторического опыта.

Указ Президента Республики Узбекистан от 7 ноября 1994 года № ПФ-982 «О создании Государственно-акционерной компании «Узбекистон темир йуллари», Закон Республики Узбекистан от 15 апреля 1999 года № 766-I «О железнодорожном транспорте», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 августа 2004 года № 366 «О дальнейшем совершенствовании организации управления Государственно-акционерной компанией «Узбекистон темир йуллари», Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 октября 2023 года № 329 «О мерах по коренному реформированию сферы железнодорожного транспорта Республики Узбекистан» и другие нормативно-правовые акты в данной сфере определяют задачи, реализация которых в определённой степени будет способствовать данному диссертационному исследованию.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности темы.** История железнодорожного транспорта, его роль в национальной экономике и социальном развитии общества являются одними из тем, которые постоянно привлекают внимание исследователей. Литературу, относящуюся к теме исследования, можно разделить на три группы с точки зрения периодического и методологического подхода:

1) Литература советского периода; 2) Исследования, проведенные в годы независимости; 3) Зарубежная литература.

**К литературе первой группы** относятся исследования, проведенные в годы советской власти. В этот период было опубликовано множество статей, брошюр и книг, посвященных данной теме. В 20-30-х годах XX века в туркестанской прессе регулярно освещались вопросы состояния железных дорог, подготовки национальных кадров и связанных с этим проблем, привлечение местных мусульман к работе на железной дороге, а также открытие новых железнодорожных линий<sup>2</sup>. Первые публикации появились в

---

<sup>2</sup>Туркистон темир йўлларининг холи // Қизил байроқ. – 1921. – 17 ноябрь; Ерли халқ орасида темир йўл хизматчилари етиштириш // Қизил байроқ. – 1921. – 16 декабрь; Сирожий. Мусулмон темир йўл ишчиларини ўқитиш керак // Туркистон. – 1923. – 13 февраль; Он же. Мусулмон темир йўл ишчилари орасида сиёсий тарбия // Туркистон. – 1923. – 20 март; Он же. Ўрта Осиё темир йўлидаги ерлик халқ ишчилари орасида // Туркистон. – 1923. – 4 июль; Сулаймон Ф. Еттисув – Сибирь темир йўли ва унинг Туркистон учун аҳамияти // Туркистон. – 1923. – 10 март; Қосимов Сами. Бизга мусулмон ишчилари керак: [Ўрта Осиё темир йўлига ерлик аҳолини жалб қилиш масаласи] // Туркистон – 1923. – 12 сентябрь; Темир йўл ташкилотларида мусулмонлар йўқ // Туркистон. – 1923. – 23 сентябрь; Мусулмон темир йўл техникуми // Туркистон. – 1923. – 16 ноябрь; Темир йўл ишчилари билан муносабат // Туркистон. – 1923. – 5 декабрь; Темир йўл ишчилари турмушидан // Туркистон. – 1924. – 12 июнь; Ал-Арабий Абу Саид. Темир йўллар мусулмонлаштирилсин [Темир йўллардаги ёзувларнинг рус тилида эканлиги ҳақида] // Туркистон. – 1924. – 29 июль; Башир З. Авлиёта – Пишпак темир йўлининг очилиши // Туркистон. – 1924. – 10 август; Андижон – Наманган темир йўлининг очилиши // Туркистон. – 1924. – 7 сентябрь; Темир йўлчи. Темир йўлчиликка ҳозирлигимиз борми? [Мусулмон темир йўл техникуми ҳақида] // Туркистон. – 1924. – 15 сентябрь;

